

XOTIRA VA UNING XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Teacher: **Akhadova Malohat**

Country: Uzbekistan

Region: Navoi, Uchkuduk school: N18

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada Inson xotirasi va uning inson hayotidagi asosiy ahamiyati va jamiyatdagi faoliyatida tutgan o'rni haqida asosiy ma'lumotlar berilgan. Xotiraning har xil turlarining asosiy mezonlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Chet tillarni o'rganishda xotiraning o'rni va asosiy xususiyatlari, hamda o'rganuvchilarning til o'rganish bo'yicha 4xil guruhga ajratilganligi tushuntirib berilgan.

kalit so'zlar : Xotira, individ, psexik aktivlik, operativ xotira, shaxs motivlari.

Yangi bilimlarni egallash va ularni amaliyotda bemalol ishlatish uchun bizda birinchi o'rinda xotira yuqori o'rin egallaydi. Yanada aniqroq aytganda xotira insonning hayot faoliyatida keng miqyosda qo'llaniladi ba u insonning o'tmishda olgan bilimlarini esga solishda yagona ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish kishidan chuqur sabr va yuksak xotirani talab etadi. Bu fikrlarning qanchalik to'g'ri ekanligini isbotlash maqsadida sizga avvalambor xotira, uning ishlash jarayoni va uning turlari haqida bir qancha foydali ma'lumotlarni berib o'tamiz.

Individning o'z hayotiy tajribasini esida olib qolishi , esda saqlab turishi va keyinchalik esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar farqlanadi: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushurish va unutish. Bu jarayonlar bir-biridan ajralgan holda yuzaga chiqmaydi. Ular bir umumiy bir jarayonning tomonlarini tashkil qiladilar. Xotiraning yuzaga chiqishi, rivijlanishi kishining faoliyati bilan bog'liq. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liq. Ma'lum materialni

esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoki faoliyatdan tushib qolishi uni esdan chqarib qo'yishga olib keladi.

Xotira inson hayoti va faoliyatining barcha sohasida qatnashishi tufayli uning nomoyon bo'lish shakllari ham har xildir. Xotiraning har xil turlari uch xil mezon asosida turlarga bo'linadi.

1. Ko'proq faoliyatda ko'rinadigan puxlik aktivlik xarakteriga ko'ra xotiraning harakat, emotsional (hissiy), obrazli va so'z-mantiqiy turlari farqlanadi.

2. Faoliyat maqsadi xarakteriga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga bo'linadi.

3. Materialning qancha esda olib qolish va esda saqlash muddatiga qarab qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ xotira turlariga bo'linadi.

Xotira turlaridan tashqari ularning jarayonlari ham farqlanadi. Bular esda olib qolish (mustahkamlash), esga tushurish (aktuallashtirish, qayta tiklash) esda saqlash va unitish jarayonlaridir. Esda olib qolish natijasida yangi materialni oldin o'zlashtirilganlari bilan bog'lash orqali mustahkamlanadi. Esda olib qolish individ tajribasini yangi bilimlar bilan boyitishning zaruriy shartidir. Esda olib qolish tanlovchanlik xarakteriga ega. Esda olib qolish quyidagilarga bog'liq:

- Inson faoliyatida aktiv qo'llagan, harakat qilgan narsalarni esda qoladi.

- Materialni esda olib qolish shaxsning motivlari, maqsadlari va faoliyat usullari bilan belgilanadi.

Ixtiyorsiz esda olib qolishda material go'yoki „o'z-o'zidan“ esda saqlanib qoladi. Bu nimaga bog'liq? O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, ixtiyorsiz esda olib qolish quyidagi omillarga bog'liq:

- Material faoliyatning asosiy maqsadining mazmuniga kirsa yaxshi esda qoladi.

Agar material faoliyatni amalga oshirishning sharoitlariga, usullariga kirsa yaxshi esda saqlab qolinmaydi.

- Faol ravishda yangi materiallar ixtiyorsiz ravishda yaxshi esda qoladi.

Ko'pchilik yoshlar bugungi kunda yangi bilimlari egallash uchun dunyoning turli tillarini o'rganishmoqda. Bu jarayonni hosil qilishda xotira muhim asqotadigan jarayondir. Bu tilni mukammal egallash kishi xotirasiga bog'liq. O'rganuvchining so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa u shuncha til imkoniyatlaridan keng foydalana oladi.

Ta'lim tarbiya jarayonida xorijiy tilni o'rgatish uchun o'qituvchi o'quvchining umumiy va individual xususiyatlariga e'tibor berishi zarur. Asosan o'rganuvchilarning 4 xil guruhi farqlanadi. Ya'ni ko'rib, eshitib, tegib va harakat yoki ijro orqali o'rganuvchilar.

Ko'rib o'rganuvchilar yangi qoida yoki so'zni rasmlar, video materiallari orqali tezroq va samaraliroq o'rgana oladilar. Eshitib o'rganuvchilarda esa radio, audio materiallar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan diktantlar foydalidir. Qolganlari ushlab ko'rganda yoki harakat jarayonida yoki taqlid orqali tezroq o'rganishga moyil bo'ladi. Har bir o'rganuvchida o'ziga xos xotirada saqlash yo'li bor kimdir ko'rib yana kimdir esa eshitib yaxshiroq o'rganadi. Xotirada saqlash esa mana shu jarayonlar har bir o'rganuvchi tomonidan to'g'ri tanlanishi orqali mukammalroq o'rganiladi.

Agarda ko'rib o'rganuvchi faqat harakat yoki eshitish orqali yangi so'z o'rganmoqchi bo'lsa unga bu ta'sir etmasligi mumkin. Misol uchun o'qituvchi yangi *Hayvonlar* degan mavzuda dars o'tmoqchi bo'lsa va yangi hayvon nomlarini o'rgatishni niyat qilgan bo'lsa bir vaqtning o'zida uning surati, uning harakati va iloji bo'lsa hayvonot bog'iga olib borib jonli holatini ko'rsatgani maqul. Chunki har bir bola har xil o'rganish qobiliyatiga ega va tezroq esiga tushadi Ya'ni bola xotirasi so'zlarni uzoq vaqt saqlab qola oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

1. www.ziyonet.uz
2. Professional Development for Uzbekistan English Teachers Training Toolkit Module 1 Toshkent-2009.